ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

UO‘K 331.46

ISHLAB CHIQARISHDAGI JAROHAT VA KASB KASALLIKLARINING DOLZARB MUAMMOLARI VA OLDINI OLISHNING TASHKILIY YECHIMI

k.f.f.d., dotsent G.M.G’ulomova, O.T.Fayzullayev
(Toshkent davlat texnika universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xavfli jarayonlar va ularning jarohatlanishiga olib keladigan sabablari va ularni oldini olish bo’yicha chora-tadbirlar tahlil qilingan. Ishlab chiqarishda jarohatlanish holatlarini oldini olish va kamaytirish hamda mehnat muhofazasini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar berilgan.
Kalit so‘zlar: ishlab chiqarishda jarohatlanish, kasb kasalliklar, avariya, baxtsiz hodisa, mehnat muhofazasi, shikastlanish profilaktik chora-tadbirlar.
Аннотация: В данной статье анализируются опасные процессы, происходящие в производственном процессе, их причины, приводящие к травматизму, и меры их предотвращения. Даны рекомендации по профилактике и снижению травматизма на производстве и улучшению охраны труда.
Ключевые слова: травматизм на производстве, профессиональные заболевания, несчастный случай, несчастный случай, охрана труда, меры профилактики травматизма.
Abstract: This article analyzes hazardous processes occurring in the production process, their causes leading to injuries, and measures to prevent them. Recommendations are given for the prevention and reduction of injuries at work and for improving occupational safety.
Key words: workplace injuries, occupational diseases, accident, accident, labor protection, injury prevention measures.

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonida mehnat xavfsizligini ta’minlash va baxtsiz hodisalarni kamaytirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Korxonalarda ishchi xodimlarning mehnat muhofazasi ta’minlanmagani, sanoat xavfsizligi bilan bog’liq bilimlar yetarli emasligi yoki ish paytidagi e’tiborsizlik natijasida ham avariyalar sodir bo’lishi kuzatiladi. Natijada atrof muhitga ko’plab zararli moddalar tashlanadi, ishchilarning shikastlanishi, og’ir tan jarohati olishi va o’lim bilan bog’liq noxush holatlar sodir bo’ladi.

Hozirgi davrning eng muhim vazifalari qatorida mehnatni muhofaza qilish va mehnat jarayonlarida havfsiz mehnat sharoitlarini tashkillashtirishga va yaxshilash masalasi alohida o‘rin olgan, bu borada qator qonunlar, hukumat qarorlari qabul qilingani bejiz emas.

Dunyoning barcha mamlakatlarida 1996 yildan boshlab har yili 28 aprelda “Butunjahon mehnat muhofazasi kuni” o‘tkazib kelinmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti butunjahon jamoatchiligi e’tiborini mehnat muhofazasi bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarga va mehnat muhofazasi madaniyatini oshirishga va ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa va kasb kasalliklarini kamaytirishga qaratib kelmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko’ra dunyoda har yili ishlab chiqarishda – 2,2 mln. o‘lim, 160 mln. kasb kasaliklik xolatlari, 270 mln. oqibati og‘ir baxtsiz xodisalar ro‘yxatga olinadi. Baxtsiz xodisalar va kasb kasaliklar natijasida yetkazilgan zarar uchun bir yilda to‘langan pul miqdori – 1,25 trln. dollarni, ya’ni dunyo yalpi ichki maxsulotini 4% tashkil etadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-4

Ammo bu raqamlar ko‘pgina ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan baxtsiz xodisalar va kasalliklarni o‘z ichiga olmagan, buning sabablari iqtisodiyotning real sektoridagina sodir bo‘lgan baxtsiz xodisalargina hisobga olinadi, ba’zi kasalliklar yosh o‘tgandan so‘ng, ishchi nafaqaga chiqqandan keyin (yurak, qon tomir va rak kasalliklari) rivojlanadi va bular hisobga kiritilmagan.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 22 sentyabrda tasdiqlangan “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunida ishlab chiqarishdagi baxtsiz xodisa va kasb kasalligiga quyidagicha ta’rif berilgan:

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o‘tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa;

kasb kasalligi — xodimning unga zararli ishlab chiqarish omili yoki xavfli ishlab chiqarish omili ta’siri natijasida yuzaga kelgan va uning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoxud turg‘un yo‘qotishiga sabab bo‘lgan o‘tkir yoki surunkali kasalligi;

mehnatda mayib bo‘lish — ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa oqibatida xodimning kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishi.



1-rasm. Ish joyidagi jarohat

Ishlab chiqarishda jarohatlanish hodisalari mashina va dastgohlarning harakatlanuvchi qismlari, qayishlar, barabanlar, shkivlar, shneklar, tishli mexanizmlar, issiq yuzalar, elektr tokidan foydalanadigan zaxarli kimyoviy moddalar, matolarni pardozlashda ishlatiladigan kislota, ishqor va boshqa zaharli moddalarning bexosdan to’kilib ketishi, ish joylarida to‘siqsiz ishlash tufayli yoki mehnat xavfsizligi qoidalariga roiya qilmaslik natijasida sodir bo‘lishi mumkin.

Jarohat joyiga qarab esa *bosh shikastlanishi* (ko‘zdan boshqa), *oyoq va qo‘l* (barmoqlardan tashqari), shuningdek *boshqa tana a’zolarining* shikastlanishiga bo‘linadi.

Shikastlanishlar og‘ir-yengilligiga ko‘ra mehnat qobiliyati yuqolmaydigan - y*engil* shikastlanishga, mehnat qobiliyati kunlab, haftalab va hatto oylab yuqotiladiganda *o‘rta* va *og‘ir* shikastlanishlarga bo‘linadi.

Shikastlanishning og‘ir turi mehnat qilish qobiliyatini mutlaqo yuqotishga sabab bo‘lishi va nogironlikka olib kelishi mumkin.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4



1-rasm. Shikatlanishlarning ko'rinishi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997 yil 6 iyundagi 286-son qarori bilan “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlangan va 1997 yil 1 iyuldan boshlab amalga kiritilgan.
Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi hududida mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda, shuningdek, mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan ayrim fuqarolarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq holda yuz bergan hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olishning yagona tartibini belgilaydi.
Nizomga asosan korxona hududida va uning tashqarisida mehnat vazifalarini bajarayotganda (shuningdek xizmat safarlarida) yuz bergan jarohatlanish, zaharlanish, issiqlik ta’siri, portlash, falokatlar, imoratlar, inshootlar va konstruksiyalar buzilishi, kuyish, muzlash, qizish, elektr toki va yashin urishi, hayvonlar, hasharotlar va sudralib yuruvchilar tomonidan, terroristik harakatlar natijasida shikastlanishlar, shuningdek tabiiy ofatlar (zilzila, ko‘chki, suv toshqinlari, to‘fonlar va boshqalar) tufayli salomatlikning boshqa xil shikastlanishlari;
o‘z funksional vazifalarini bajarish yuzasidan, shuningdek avariyalarning, odamlar halok bo‘lishining oldini olish va korxonaning mulkini saqlash maqsadida, ish beruvchi topshiriq bermagan bo‘lsa ham, korxona manfaatlarini ko‘zlab qandaydir xatti-harakatlarni amalga oshirayotgandagi;
xodim xizmat safarida bo‘lgan yoki o‘z funksional vazifalarini bajarish vaqtida - yo‘l-transport hodisasidagi, temir yo‘l, havo yo‘llaridagi, dengiz va daryo transportidagi, elektr transportidagi hodisa natijasidagi;
ish beruvchi tomonidan buyruq bilan maxsus ajratilgan uydan ishga va/yoki ishdan uyga xodimlarni tashish uchun mo‘ljallangan transportda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun shartnoma (buyurtma)ga muvofiq o‘zga tashkilot transportida ishga ketayotgan yoki ishdan qaytayotgandagi;
ish vaqtida shaxsiy transportda, uni xizmatga oid safarlar uchun ishlatishga ruxsat berilganlik haqida ish beruvchining yozma buyrug‘i mavjud bo‘lgandagi;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ish beruvchining topshirig‘ini bajarish uchun transportda yoki piyoda harakatlanayotganda, shuningdek mehnat faoliyati xizmat ko‘rsatish obyektlari orasida yurish bilan bog‘liq xodimlar bilan ish vaqtida transportda yoki piyoda ketayotgandagi;

tadbirlarning o‘tkazilishi yoki ishlar bajarilishi joyidan qat’i nazar, shanbalik (yakshanbalik), fuqaro mudofaasi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari, ko‘ngilli yong‘in muhofazasi musobaqalari o‘tkazilayotgandagi, qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb etilgandagi, ish beruvchining yozma farmoyishi bo‘yicha korxona tomonidan otaliq yordami ko‘rsatilayotgandagi;

ichki ishlar organlarining ma’lumotlari asosida — ish vaqtida mehnat vazifalarini bajarayotganda boshqa shaxs tomonidan tan jarohati yetkazilgandagi;

smenali dam olishda bo‘lgan xodim bilan transport vositasidagi vaxta shaharchasi hududidagi yoki ijaraga olingan xonadagi (kuzatib boruvchi, refrijerator brigadasi xodimi, smenali haydovchi, dengiz va daryo kemalari xodimlari, shuningdek, vaxta-ekspeditsiya usulida ishlayotganlar va boshqalar) baxtsiz hodisalar tekshiriladi va hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasiga doir ishlar tashkiliy-texnik tadbirlarning kompleks rejasi asosida amalga oshiriladi. Bu tadbirlarni korxona ma’muriyati mahalliy kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan birgalikda ishlab chiqadi. Kompleks reja yillik, besh yillik yoki ko‘p yillik rejalardan tashkil topadi. Ishning bajarilishini nazorat qilish xavfsizlik yo‘llari bo‘yicha muhandis zimmasiga, uni amalga oshirishga javobgarlik esa korxona sexlari, bo‘limlari, bo‘linmalari boshliqlari zimmasiga yuklatiladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish bo‘yicha ishlarni tashkil etish quyidagilardan iborat:

1. Xodimlarni kasbiy tanlovini o‘tkazish.
2. Xodimlarni mehnat muhofazasi bo‘yicha o‘qitish.
3. Mehnat muhofazasi bo‘yicha targ‘ibot ishlarini ta’minlash.
4. Qo‘llanadigan mexanizm, dastgoh va ishlab chiqarish vositalarini xavfsizligini ta’minlash.
5. Texnologik jarayonining xavfsizligini ta’minlash.
6. Ishlab chiqarish bino va inshoatlarini xavfsizligini ta’minlash.
7. Mehnat shart-sharoitlarining sanitar-gigienasini me’yorlash.
8. Ishchilarini shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlash.
9. Xodimlarni optimal ish va dam olish rejimini ta’minlash.
10. Ishchilarni davolash-profilaktika xizmati bilan ta’minlash.
11. Xodimlarning sanitar-maishiy ta’minlashini me’yorlash.

Korxonalar ma’muriyati va muhandis-texnik xodimlarning asosiy vazifalari mehnat haqidagi qonunlar hamda “Xavfsizlik yo‘llari va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari” bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini kamaytirish, oldini olishga oid mehnat muhofazasi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, tadbirlariga umumiy rahbarlik hamda bu ishga javobgarlik korxona rahbari uning o‘rinbosari-bosh muhandis zimmasiga yuklatiladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish chora-tadbirlarining amalga oshirilishi, mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini - maxsus vakolatga ega bo‘lgan davlat idoralari va ularni inspeksiyalari; jamoatchilik nazoratini - kasaba uyushmasi tashkilotlari nazoratni amalga oshiradilar. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1996-yil 4-avgustda 273-son bilan ro‘yxatga olingan “Mehnatni muhofazasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish to‘g‘risida namunaviy Nizom” talablariga binoan, korxonalarda qo‘llaniladigan nazorat turlari:

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

- ish boshqaruvchisi va boshqa mansabdor rahbarlarning tezkor nazorati;
- ma'muriy-jamoatchilik (uch bosqichli) nazorati;
- mehnat muhofazasi xizmati tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
- bosh mutaxassislar xizmatlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat;
- jamoat nazorati.

Ma'muriy-jamoatchilik (uch bosqichli) nazorat – korxonada mehnat muhofazasi bo'yicha o'rnatilgan qoida va me'yorlarga rioya qilinishi ustidan ma'muriyat va kasaba uyushmasi tomonidan olib boradigan nazoratini eng asosiy turi bo'ladi.Ushbu nazoratni boshqarish korxona rahbari va kasaba uyushma raisi tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish bo'linmalarni uch bosqichli nazorat obyektlariga belgilab berish, ishlab chiqarish xususiyati, korxona tuzilmasi va uning bo'linmalari ko'lami inobatga olinib, korxona ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.Kasaba uyushmalari tomonidan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olish maqsadida korxonalarning jamoa shartnomasiga alohida mehnatni muhofaza qilish bo'limi kiritilib, unda ish beruvchining majburiyatilari, kasaba uyushma qo'mitasining majburiyatlari, ularning o'zaro majburiyatlari aks ettiriladi.Jumladan, ish beruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 12-noyabrdagi 245-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda mehnatni muhofaza qilish jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga binoan Mehnatni muhofaza qilish fondini barpo etadi va uni xodimlarning mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash va muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga sarflaydi.

Mehnat xavfsizligi standartlariga qat'iy va aniq amal qilish ustidan nazoratni olib borish korxonaning mehnat muhofazasi xizmati zimmasiga yuklatiladi.

Xodimlarni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 24-iyundagi 177-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish qoidalari" talablariga muvofiq holda sug'urta qiladi. Xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitish hamda bilimlarini tekshirish to'g'risidagi namunaviy Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1996-yil 14-avgustda 272-raqam bilan ro'yxatga olingan) talablariga binoan xodimlarni mehnat muhofazasi bo'yicha o'qitadi hamda bilimlarini tekshirish ishlarini tashkil etadi.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi mehnatni muhofaza qilish bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqlaydi, kasaba uyushmasi faollari o'quvini o'tkazadi.Mehnat muhofazasi vakillari va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha komissiya a'zolari yordamida injener-texnik xodimlar, xizmatchilarning mehnat muhofazasi talablariga qanday amal qilishayotganliklari ustidan doimiy nazorat o'rnatadi. 2008-yil 10-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, uning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasiga bo'lgan huquqlarini qonunda belgilab qo'yish orqali ularning ijtimoiy himoyasini amalga oshirish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va kasb kasalligi oqibatida xodimning hayoti hamda sog'lig'iga zarar yetkazilganligi munosabati bilan sug'urta tovoni to'lanishini ta'minlash;
- mehnatni muhofaza qilish holatini va mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarning sog'lig'ini saqlash.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

Kasb kasalliklari profilaktikasida korxona tasarrufidagi davolash muassasalarida amalga oshiriladigan sog‘lomlashtirish, maxsus profilaktik ovqat bilan ta’minlash, mehnat sharoitlarini nazorat qilish, ishga kirish paytidagi dastlabki va davriy ravishda o‘tkaziladigan tibbiy ko‘rikning ahamiyati katta.

Korxonadagi o‘ziga xos himoya vositalari, doimiy o‘tkaziladigan texnika xavfsizligi tadbirlari, davriy tibbiy ko‘rik, to‘g‘ri ovqatlanishning yo‘lga qo‘yilishi va dam olish tartibiga rioya qilish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish va tamaki chekishdan saqlanish xodim salomatligini mustahkamlaydi.

Bo‘lajak ishchining salomatligi muvofiqligini aniqlovchi tibbiy ko‘riklar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2012-yil 10-iyuldagi 200-sonli “Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi” buyrug‘i bilan (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 214-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan xodimlar).belgilangan tartibda o‘tkaziladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Gulyamova G.M., Musaev M.N. Problems of sludge waste disposal in the oil and gas industry. Collection of materials of the VII International Correspondence Scientific and Practical Conference, June 5, 2020, pp.98-100. Minsk.
2. Musaev M.N., Gulyamova G.M. Methods of utilization and processing of oil sludge. International Scientific and Technical on-line Conference September 17-19, 2020 p.323-324. Tashkent.
3. . Gulomova G.M., Bozorov Z. P., Talipova Yu. A. The influence of the environment on the strength of building structures. Novateur publication, Indian magazine NX. May 25 and 26, 2021, pp.733-737.
4. Gulomova G.M., Aripxodjaeva M.B., Abdurakhmonov E.B Types, properties, characteristics of activated carbon and obtaining samples of granular activated carbons using composite binders. Technical science and innovation Journal. Tashkent, 2021. 61-66 p.
5. Abdurahmonov Q. Mehnat iqtisodiyoti nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent - 2019. – 443-449 b
6. Ismailov R. "Management system efficiency and labor productivity". Tashkent: Academy of Management of the Republic of Uzbekistan. Tashkent - 2022.11-16
7. Ш.М Нарзиев , А.Б Ботиров. Методы изучения и анализа рисков в трудовом процессе безопасности деятельности человека. ТЕХика, 2021 - cyberleninka.ru.
8. Ш.С Рахмонов, Ш.М Нарзиев. Теоретический анализ промышленных аварий и профессиональных заболеваний. ТЕХИКА, 2021 - cyberleninka.ru
9. Ш.М Нарзиев. Применение и анализ педагогических методов в образовательном процессе. тесНика, 2021 - elibrary.ru